

**«Tasdiqlangan»**  
**“Ipoteka-bank” ATIB**  
Aksiyadorlar umumiy yigilishining  
2017 yil “23” iyundagi  
24-sonli bayoni

**“Ipoteka-bank” ATIB**  
**Taftish komissiyasi to’grisida**  
**Nizom**

**Toshkent-2017**

## **1. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 2 oktyabrdagi «Aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-2084 sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida»gi Nizomi (ro'yxat raqami №943, 05.07.2000y.), «Ipoteka-bank» ATIB aksiyadorlari umumiy yig'ilishining 05.12.2016 dagi 23-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ipoteka-bank» ATIB Ichki nazorati to'g'risida»gi Nizom hamda «Ipoteka-bank» ATIB Ustaviga muvofiq ishlab chiqarilgan.

1.2. Ushbu Nizom «Ipoteka-bank» ATIB (keyingi o'rinlarda Bank deb ataladi) Taftish komissiyasining (keyingi o'rinlarda Taftish komissiyasi deb ataladi) huquqiy maqomi, tarkibi, funksiyalari, vakolatlarini va ishlash tartibini belgilab beradi.

## **2. TAFTISH KOMISSIYASINING HUQUQIY MAQOMI**

2.1. Taftish komissiyasi Bankning saylanadigan organi hisoblanib, Bankning, uning tarkibiy bo'linmalarining, filiallari va vakolatxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi.

2.2. O'z faoliyatida Taftish komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga, davlat boshqaruvi organlarining qonunosti hujjatlariga, Bank Ustaviga, mazkur Nizomga va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadigan hamda Taftish komissiyasi va uning a'zolari faoliyatiga taalluqli bo'lgan Bankning boshqa hujjatlariga amal qiladi.

2.3. Taftish komissiyasi Bank Boshqaruvi va mansabdor shaxslaridan mustaqil bo'lib, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga bo'ysunadi va hisobot beradi.

2.4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan Taftish komissiyasi a'zolariga ularning komissiya a'zolari funksiyalarini bajarganliklari uchun mukofot va (yoki) kompensasiya to'lovlari to'lanishi mumkin. Mukofot va kompensasiyalar miqdori aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorida belgilanadi.

## **3. TAFTISH KOMISSIYASINING TARKIBI**

3.1. Taftish komissiyasi a'ziligiga nomzodlar O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni talablariga muvofiq belgilangan tartibda ko'rsatiladi.

3.2. Taftish komissiyasi a'zolari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi. Ovoz bepish Taftish komissiyasi a'ziligiga har bir nomzod bo'yicha alohida o'tkaziladi. Taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish masalasi bo'yicha qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishida aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

3.3. Taftish komissiyasi a'zolari soni Bank Ustavida belgilanadi. Taftish komissiyasi a'zolari soni toq bo'lishi kerak. Taftish komissiyasi bir yil muddatga saylanib, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan komissiya a'zolarining a'zolik muddatlari uzaytirilishi mumkin. Ayni bir shaxs taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

3.4. Taftish komissiyasi a'zolarining vakolatlari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra muddatidan oldin to'xtatilishi mumkin.

3.5. Taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zosi bo'lishlari, shuningdek, Bankda mehnat shartnomasi bo'yicha ishlashlari mumkin emas. Taftish komissiyasining birinchi yig'ilishida a'zolaridan bir kishi komissiya raisi etib saylanadi. Ovoz berishda taftish komissiyasi a'zolari ishtirok etadilar. Ko'pchilik ovozga ega bo'lgan shaxs

taftish komissiyasi raisi etib saylangan hisoblanadi.

3.6. Taftish komissiyasi raisi komissiya ishini muvofiqlashtirib turadi, taftish komissiyasi yig'ilishlarini o'tkazadi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bankning boshqa boshqaruv organlarida Taftish komissiyasi nomidan ishtirok etadi.

3.7. Taftish komissiyasi a'zolari o'z faoliyatlarini tashkillashtirish va funksiyalarini bajarish uchun oliy ma'lumotga va yetarli ish tajribasiga ega bo'lishlari lozim. Taftish komissiyasi a'zolarining kamida ikkitasi iqtisod sohasi bo'yicha mutaxassis bo'lishi lozim.

#### **4. TAFTISH KOMISSIYASINING FUNKSIYALARI**

4.1. Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Bank Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador(lar)ning talabiga ko'ra Bank Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi. Taftish komissiyasining yozma talabiga ko'ra Bank ijroiya organida mansabni egallab turgan shaxslar bankning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga taqdim etishlari shart.

4.2. O'z funksiyalarini bajarish paytida Taftish komissiyasi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- Bankning moliyaviy hisobotlarini, yuritilayotgan buxgalteriya va statistika hisobining mavjud me'yoriy qoidalarga muvofiqligini tahlil qilish;
- Bank nomidan tuzilgan ahamiyatli shartnomalar, amalga oshirilgan bitimlar, kontragentlar bilan hisob-kitoblarning qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshirish;
- moliya-xo'jalik faoliyatida belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlar va qoidalarga rioya etilishini tekshirish;
- Bankning moliyaviy holatini, to'lovga qobilligini, likvidligini, kredit va investisiya portfeli holatini, zahiralarni yetarilishini o'rganish;
- Kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'g'riligini, ularning Bank Ustaviga, Bank Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvi to'g'risidagi nizomlarga va aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi qarorlariga muvofiqligini tekshirish;
- soliq va statistika organlari, davlat boshqaruv organlari uchun Bank balanslari, hisobot hujjatlari to'g'ri tuzilganligini tekshirish;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishlari qarorlarini tahlil etish, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlaridan tafovut qilgan taqdirda ularni o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish.

#### **5. TAFTISH KOMISSIYASINING HUQUQLARI VA VAKOLATLARI**

5.1. Taftish komissiyasi o'z funksiyalarini bajarishida quyidagi huquq va vakolatlariga egadir:

- Bank boshqaruv organlaridan, uning tarkibiy bo'linmalari va filiallaridan komissiya ishi uchun zarur bo'lgan, o'zining funksiyalari va vakolatlariga muvofiq keladigan barcha hujjatlar va ma'lumotlarni olish. Ushbu hujjatlar va ma'lumotlar taftish komissiyasiga uning yozma so'rovidan keyin uch kun mobaynida taqdim etilishi zarur;
- Ish faoliyatida qonunbuzarliklar aniqlanishi yoki Bank manfaatlariga tahdid solinishi, Bankning boshqaruv organlarining vakolatida bo'lgan masalalarni hal qilinishini talab etadigan hollarda, vakolatli shaxslardan Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi majlislarini, aksiyadorlar umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilish;
- Ish faoliyatida qonunbuzarliklar aniqlangan yoki Bank manfaatlariga boshqacha xavf tahdid solgan hollarda Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini chaqirish (bir ovoz bilan qaror chiqargan

holda);

- Bank xodimlaridan, shu jumladan istalgan mansabdor shaxslaridan, Taftish komissiyasi vakolatida bo‘lgan masalalar bo‘yicha yozma va og‘zaki tushuntirish berishlarini talab qilish;
- Bankda shtat lavozimlarini egallamagan mutaxassislarni shartnoma asosida o‘z ishiga jalb etish;
- Bank boshqaruv organlari, uning tarkibiy bo‘linmalari va filiallari oldiga, Bank tomonidan qabul qilinayotgan nizomlar, qoidalar va yo‘riqnomalarni buzganlari taqdirda, Bank xodimlari, shu jumladan mansabdor shaxslarining javobgarligi to‘g‘risidagi masalani qo‘yish.

## **6. TAFTISH KOMISSIYASI VA UNING A'ZOLARINING MAJBURIYATLARI**

6.1. Tekshirishlarni o‘tkazish paytida Taftish komissiyasi a'zolari tekshiruv mavzusiga taalluqli bo‘lgan barcha hujjatlar va ma'lumotlarni sinchiklab tekshirishga majburdirlar. Noto‘g‘ri xulosalar uchun Taftish komissiyasi a'zolari aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilanadigan mezonlarda javobgar bo‘ladilar.

6.2. Agar Taftish komissiyasining a'zosi unga berilgan vakolatlarning amal qilish muddati mobaynida o‘z funksiyalarini bajarishni to‘xtatsa, bu holda u Kuzatuv kengashini Taftish komissiyasidagi ishini to‘xtatishdan bir oy oldin xabardor qilishi shart. Bu holda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘zining eng yaqin vaqtda o‘tkaziladigan majlisida Taftish komissiyasining a'zosini almashtiradi.

6.3. Taftish komissiyasi a'zolari quyidagilarga majbur:

- Taftish komissiyasi tomonidan o‘tkaziladigan tekshirishlarda ishtirok etish;
- aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi, Boshqaruv e'tiboriga amalga oshirilgan taftish va tekshirishlar natijalarini yozma hisobot, ma'ruza, axborot shaklida uz vaqtida yetkazish;
- bank sirini saklash, o‘z funksiyalarini bajarishlari paytida Taftish komissiyasi a'zolari foydalana oladigan, sir saqlanadigan ma'lumotlarni e'lon qilmaslik;
- o‘z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarishda bank manfaatlarini himoya qilgan holda harakat qilish;
- bank manfaatlariga haqiqatda xavf tahdidi paydo bulgan yoki mansabdor shaxslar yo‘l qo‘ygan suiste'molliklar aniqlangan taqdirda vakolatli organlardan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishni talab qilish

6.4. Taftish komissiyasi tekshiruvlari natijasi bo‘yicha hisobot (xulosa)ni tekshirish yakunlangandan so‘ng 10 kundan kechiktirmasdan rasmiylashtiradi.

6.5. Taftish komissiyasi Kuzatuv kengashiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishiga ko‘pi bilan 10 kun qolganda moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari va tartiblariga muvofiq Bankning yillik moliyaviy hisobotlari tekshiruvi natijasi bo‘yicha hisobot(xulosa)ni taqdim etadi.

6.6. Taftish komissiyasi Bankning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko‘ra hisobot(xulosa) tuzadi va unda:

- bankning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko‘rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho;
- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo‘jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to‘g‘risidagi axborot ko‘rsatilishi shart.

6.7. Taftish komissiyasi Bankda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va Bank ichki hujjatlarining bunday bitimlarni

tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Bank Kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi.

## **7. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

7.1. Taftish komissiyasi o'z faoliyatiga oid masalalarni o'z majlislarida hal etadi. Komissiya a'zolarining oddiy ko'pchiligi ishtirok etgan majlis qonuniy deb hisoblanadi.

Taftish komissiyasi tekshirish hisobot(xulosa)lari Taftish komissiyasi Raisida saqlanadi va aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tgandan so'ng 30 kun ichida saqlash uchun Bankning Ichki audit xizmatiga taqdim etiladi. Taftish komissiyasi faoliyatiga oid hujjatlarni keyinchalik saqlanishi bankda arxiv ishlarini yuritish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.